

QURILISHDA PARDOZBOP ASHYOLARNING O'RNINI

Alieva Nabiya Xapizatdin qizi
Qoraqolpoq davlat universiteti magistranti

Anotatsiya: Ushbu maqolada binolarni qurishda va binolarning tashqi yoki ichki qismlarini bezash, estetik jihatdan chiroyli va jozibador ko'rinishga keltirishda, ularni har xil tashqi ta'sirlardan himoya qilish uchun ishlatiladigan materiallar bu pardozlovchi qurilish materiallari va ularning vazifalari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: pardozbop, bino, inshoot, estetik, zamonaviy qurilish, arxitektura, devor, shift, pol, bo'yoq, oboy, dekorativ suvoq, ganchkorlik ishlari, keramika plitkalari, ultrabinafsha nurlar, energiya.

KIRISH

Qadim zamonlardan beri insonlar yashash, mehnat qilish va dam olish uchun turli bino va inshootlar barpo etib kelishgan. Biroq, bu inshootlar faqatgina mustahkamlik yoki qulaylik uchun emas, balki chiroyli ko'rinishga ega bo'lishi ham muhim hisoblangan. Aynan shu ehtiyoj tufayli pardozbop qurilish materiallari yuzaga kelgan.

Pardozbop materiallar – bu binolarning tashqi yoki ichki qismlarini bezash, estetik jihatdan chiroyli va jozibador ko'rinishga keltirish, shuningdek, ularni tashqi ta'sirlardan himoya qilish uchun ishlatiladigan maxsus qurilish ashyolaridir. Zamonaviy qurilishda bu materiallarning o'rnini nihoyatda muhim bo'lib, ular qurilish jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Ma'lumki, buning uchun xar bir mutaxassis tabiatning nozik in'omlaridan to'g'ri foydalanishni, shuningdek tanlangan qurilish sohasini, pardozbop ashyo turlari va ularni tuzilishini bilishi va ularni ushbu sharoitga mosligini tassavur etabilishi kerak.

Pardozbop qurilish ashyolari tushinchasi bino va inshootlarni bezab turgan dizayn kompozitsiyalar to'plamini ko'rganda nafaqat unga ma'no beradi balki estetik sifatini yaxshilaydi. Bino va inshootlarning go'zalliligi va uning mustahkam bo'lishiga erishish nafaqat moddiy jihatdan barpo qilish balki me'moriy jihatini xam o'z ichiga oladi. Qurilish ashyolarining tashqi ko'rinishidan uning mustahkamligi bilan tashqi muxitning zararli moddalar ta'siriga chidamliligi hamohang bo'lmog'i lozim. Uzoq yillar davomida bino yuzasida uning estetik ko'rinishi asta sekin o'zgarib boshlaydi, pardozbop ashyolar rangi xiralashadi, har turli belgi va mayda darz-yoriqlar paydo bo'ladi. Haqiqiy bilimdon quruvchi bularni loyixa ishlari boshlanmasdan oldin bilishi va buni oldini olishi kerak bo'ladi.

Asosiy qism

1. Pardozbop ashyolarning asosiy vazifalari

a) Estetik ko'rinish yaratish



Pardozbop ashyolarni oqilona tanlash va yaratilishi an'anaviy arxitektura shakllarning o'zgarishiga olib keladi.

Pardozbop ashyolarning arxitekturaviy shaklga ta'sir qilishini talabalar o'quv-loyihalash jarayonida, xajmiy-fazoviy kompozitsion maketlarini ishlash orqali bilimlarini oshirish mumkin.

Bino va inshootlar narxining taxminan 50-60% ini qo'llaniladigan ashyolarning narxi tashkil etadi.

Har qanday bino birinchi navbatda uning tashqi va ichki ko'rinishi orqali baholanadi. Estetik nuqtai nazardan ashyolarni tanlash miqdor va sifat

ko'rsatgichlari bilan bog'liq. Pardozbop ashyolar yordamida:

- Devorlar, shiftlar va polga jozibadorlik beriladi,
- Ranglar uyg'unligi yaratiladi,
- Me'moriy uslub ifodalanadi (zamonaviy, klassik, milliy va h.k.).

Misollar: bo'yoqlar, oboylar, dekorativ suvoq, ganchkorlik ishlari, keramika plitkalari va boshqalar.

b) Himoya qilish

Pardoz materiallari yuzalarni turli salbiy ta'sirlardan himoya qiladi:

- Namlik va suvdan (masalan, hammomda ishlatiladigan plitkalar),
- Zangdan (metall yuzalarda ishlatiladigan bo'yoqlar),
- Quyosh nurlaridan (ultrabinafsha nurlarni aks ettiruvchi pardoz materiallari),
- Chang va ifloslanishdan (yuviladigan devor qoplamalari).

v) Issiqlik va ovoz izolyatsiyasi

Zamonaviy pardozbop materiallar yordamida:

- Binolar issiqlikni yaxshi ushlab turadi (energiya tejaydi),
- Ovoz yahtimi yaxshilanadi (masalan, ofis, mehmonxona, kinoteatrlar uchun maxsus materiallar),

- Qulay mikroiklim ta'minlanadi.

2. Pardozbop ashyolarning amaliy ahamiyati

- Qulay yashash muhitini yaratish: Yorug'lik, ranglar va teksturalarning uyg'unligi inson psixologiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- Binoning xizmat muddatini uzaytirish: Himoya qatlam vazifasini o'tashi orqali bino uzoq muddatga mustahkam bo'lib qoladi.

- Qiymatini oshirish: Sifatli bezatilgan bino sotuv yoki ijarada yuqori narxga ega bo'ladi.

- Madaniy qadriyatlar aks ettiriladi: Milliy uslubdagi pardoz materiallari (masalan, ganchkorlik, naqshlar) orqali tarixiy va madaniy an'analar saqlanadi.





Xulosa. Pardozbop qurilish ashyolari nafaqat binolarni chiroyli va jozibador ko'rsatadi, balki ularni himoya qiladi, funksional imkoniyatlarini kengaytiradi hamda qulay yashash muhitini yaratadi. Pardozbop qurilish ashyolarini tanlashda va ishlatilishida ularni rangi, tuzilishi va fakturalariga qarabgina emas, balki ularni inson salomatligiga ta'siri, hamda tibbiyot olimlarining fikrini o'rganish ham kerak bo'ladi. Bugungi kunda zamonaviy dizayn, ekologiya va energiya tejash talablariga mos keladigan yangi avlod pardoz materiallari ishlab chiqilmoqda. Ularning to'g'ri tanlanishi va qo'llanilishi nafaqat estetik ko'rinishni, balki bino sifatini ham belgilab beradi. Shu bois, har qanday qurilishda pardozbop ashyolar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular butun inshootning yakuniy ko'rinishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Косимов Э.У, Низомов Т.А. Архитектура ашёшунослиги.—Чўлпон|нашр. Тошкент-2013й.
2. Косимов Э.У —Қурилиш ашёлари. Маълумотнома||. Чўлпон нашр. Тошкент. 2011 й
3. Касимов Иброхим Иркинович ПАРДОЗБОП ҚУРИЛИШ АШЁЛАРИ Тошкент. 2021 й
4. N.A. Mahmudova, H.N. Nuritdinov PARDOZLASH VA ISSIQLIK IZOLATSIYA MATERIALLARI Toshkent 2010
5. Alimov X.A., Ikromov O.R. Pardozlash va issiqlik izolatsiya materiallari»ni ishlab chiqarish asoslari fanidan bosqich ishini ba- jarishga doir uslubiy ko'rsatmalar. — T., 1993.

